

**FARG‘ONA JAMOAT SALOMATLIGI TIBBIYOT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.04/30.09.2020.Tib.122.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI  
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI**

**XUDAYBERGANOV SODIK TOSHTIMEROVICH**

**COVID-19 BILAN KASALLANGAN BEMORLAR SON SUYAGI  
BOSHCHASIDAGI PATOMORFOLOGIK O‘ZGARISHLAR**

**14.00.15 –Patologik anatomiya**

**TIBBIYOT FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

**Farg‘ona-2024**

**UDK: 616.1/9-616.5-003.871**

**Falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati mundariyasi**

**Oglavlenie avtoreferata dissertasii doktora filosofii (PhD)**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Xudayberganov Sodik Toshtimerovich**

Covid-19 bilan kasallangan bemorlar son suyagi boshchasidagi  
patomorfologik o'zgarishlar ..... 5

**Xudayberganov Sodik Toshtimerovich**

Patomorfologicheskie izmeneniya golovki bedrennoy kosti u pasientov,  
infisirovannix COVID-19 ..... 25

**Khudayberganov Sodik Toshtimerovich**

Pathomorphological changes in femoral head of patients infected with  
Covid-19 ..... 49

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Spisok opublikovannix rabot  
List of published works ..... 55

**FARG‘ONA JAMOAT SALOMATLIGI TIBBIYOT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.04/30.09.2020.Tib.122.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI  
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI**

**XUDAYBERGANOV SODIK TOSHTIMEROVICH**

**COVID-19 BILAN KASALLANGAN BEMORLAR SON SUYAGI  
BOSHCHASIDAGI PATOMORFOLOGIK O‘ZGARISHLAR**

**14.00.15 –Patologik anatomiya**

**TIBBIYOT FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

**Farg‘ona-2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertasiyaci mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovasiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasida B2023.3.PhD/Tib 3842 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertasiya Samarqand davlat tibbiyot universitetida bajarilgan.

Dissertasiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.fjsti.uz](http://www.fjsti.uz)) va «Ziyonet» Axborot-ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Jumanov Ziyadulla Eshmamatovich**  
tibbiyot fanlari doktori, dotsent

**Rasmiy opponenlar:**

**Rasulov Hamidullo Abdullaevich**  
tibbiyot fanlari doktori, dotsent

**Mahkamov Nosirjon Jo‘raevich**  
tibbiyot fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Tojikiston Respublikasi Abu Ali Ibn Sino nomidagi  
Tojikiston davlat tibbiyot universiteti**

Dissertasiya himoyasi Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti huzuridagi Ilmiy daraja beruvchi PhD 04/30.09.2020.Tib.122.01 raqamli ilmiy kengash asosida tuzilgan bir martalik ilmiy kengashning 2024 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 150100, Farg‘ona shahri. Yangi Turon ko‘chasi 2-a uy. Tel: (+99895) 400-01-14, faks (99873) 245-59-07 e-mail: [info@fjsti.uz](mailto:info@fjsti.uz)).

Dissertasiya bilan Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 150100, Farg‘ona shaxri. Yangi Turon ko‘chasi 2a-uy. Tel: (+99895) 400-01-14, /faks(99873) 245-59-07 e-mail: [info@fjsti.uz](mailto:info@fjsti.uz)).

Dissertasiya avtoreferati 2024 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ da tarqatildi.

(2024 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**A.A.Sidikov**

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy Kengash raisi,  
tibbiyot fanlari doktori, professor

**M.D. Ashurova**

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy Kengash  
kotibi, tibbiyot fanlari nomizodi, dotsent

**Sh.I.Ro‘ziev**

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy Kengash  
qoshidagi Ilmiy Seminar raisi, tibbiyot  
fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasiga annotasiya)

**Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) tomonidan 11 fevral 2020 yil kuni rasman koronavirus infeksiyasiga COVID-19 («Coronavirus disease 2019») nomi berildi. Ushbu kasallik Xitoyda 77 ming odamda qayd etilib, 2 yarim mingdan ziyod kishining bevaqt o‘limiga sabab bo‘ldi. Butun dunyoda 2020 yilda bu infeksiyaga chalinganlar, 60 million 894 mingtani tashkil etgan bo‘lib, shundan 1 million 430 mingtasi vafot etgan, qolganlarida sog‘ayish kuzatilgan (Bolexan V.N., Ulyukin I.M., Peleshok S. A., 2020). «... COVID-19 nafas a‘zolarining zararlanishi bilan namoyon bo‘lsa-da, ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan bu ko‘p tizimli kasallik ekanligini isbotlangan. Jumladan, yurak, miya, buyraklar, qon tomirlari va insonning boshqa hayotiy muhim sistema va organlarida jiddiy asoratlarni keltirib chiqarishi mumkin...»<sup>1</sup>. Bugungi kunda butun dunyoda 698 434 801 nafar kasallangan, shundan vafot etganlar 6 944 117 nafarni, sog‘ayganlar 669 815 806 nafarni, hozirda davolanayotganlar 201 674 878 nafarni tashkil etadi.

Mamlakatimizda COVID-19 bilan kasallanish mutloq (absolyut) ko‘rsatkichlarda 54 mingdan ortiq holat qayd qilinib, bu umumiy aholi soniga nisbatan 0,15% ni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich har 100 ming aholi soniga nisbatan nisbiy (intensiv) ko‘rsatkichlari 158.8 ni tashkil etadi. Mamlakatimizda tibbiyot sohasini rivojlantirish, tibbiy tizimni jahon andozalari talablariga moslashtirish, jumladan, turli etiologiyali somatik kasalliklarni oldini olishga qaratilgan muayyan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu borada 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining ettita ustuvor yo‘nalishiga muvofiq aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish darajasini yangi bosqichga ko‘tarishda «... birlamchi tibbiy-sanitariya xizmatida aholiga malakali xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash ...»<sup>2</sup> kabi vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, jumladan, COVID-19 bilan kasallangan turli yoshdagi bemorlar son suyagi boshchasidagi o‘zgarishlar kasallikning muddatlari va bemorlar yoshiga xos jihatlari yuzasidan tadqiqotlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Mazkur dissertasiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yili 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2018-yil 7-dekabrda PF-5590-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni Saqlash Tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi, 2020-yil 12-noyabrda PF-6110-sonli “Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari faoliyatiga mutlaqo yangi mexanizmlarni joriy qilish va sog‘liqni saqlash tizimini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari 2019-yil 6-maydagi PQ-4310-sonli “Tibbiyot va farmasevtika ta’lim va fan tizimini yanada rivojlantirish

<sup>1</sup>Abduraximov Abduxalim Xoliddinovich, Xegay Lyubov' Nikolaevna, Yusupova Shaxnoza Kadirjanovna Covid-19 i yego oslojneniya // Re-health journal. 2021. №4 (12).

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni

chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 12-noyabrdagi PQ-4891-sonli "Tibbiy profilaktika bo'yicha ishlar samaradorligini yanada oshirish orqali aholi salomatligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2021-yil 25-maydagi PQ-5124-sonli "Sog'liq saqlashning kompleks rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2021-yil 28-iyuldagi PQ-5199-sonli "Sog'liqni saqlash sohasida ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 16-iyundagi PQ-283-sonli "Aholiga tez tibbiy yordam ko'rsatishni takomillashtirish to'g'risida"gi qarorlari, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertasiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VI «Tibbiyot va farmakologiya» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, COVID-19ga chalingan bemorlarda, asosan erkaklarda chanoq son bo'g'ini osteoartrozi ko'p uchraydi. Koronavirus SARS-CoV-2 uning reseptorlari bo'lgan angiotenzin I-konvertasiya qiluvchi ferment 2 (ACE-2) orqali hujayralar ichiga kiradi. ACE-2 2-toifa alveositlarda (AT2) ifodalanadi. O'pka, jigar xolongositlari, yo'g'on ichak hujayralari, qizilo'ngachning keratinositlari, yonbosh va to'g'ri ichakning epiteliy hujayralarga kirib boradi (Qi F. et.el., 2020 y.; Ortega J. T. et.el., 2020 y.). SARS-CoV-2 kirish hujayralari endotelial hujayralar, fibroblastlar, eritrositlar, trombositlar, gippokamp, bodom bezlari, yurak, teri, monositlar, va T-limfositlar hisoblanadi (Wang K. va boshq., 2020y.). COVID-19 yoshlarga qaraganda keksa odamlarda, ayollarga nisbatan erkaklarda ko'proq uchraydi (Yu F. et.el., 2020 y.).

Ko'plab tadqiqotchilar tomonidan COVID-19 bilan kasallangan bemorlarning markaziy asab tizimidagi, o'pka, jigar, taloq, buyrak, hazm sistemasidagi, qon aylanish tizimidagi o'zgarishlar keng yoritilgan bo'lib, tayanch-harakat sistemasidagi patomorfologik o'zgarishlarga bag'ishlangan tadqiqotlar kamroq tashkil etadi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib, shuni ta'kidlash lozimki, COVID-19 bilan kasallangan bemorlar son suyagi boshchasi tuzilmalarining morfologik va morfometrik o'zgarishlariga bag'ishlangan maqsadli tadqiqotlar o'tkazilishi dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

**Dissertasiya tadqiqotining dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertasiya tadqiqoti Samarqand davlat tibbiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №012002262 «O'smalar, xirurgik kasalliklar va travmalarni oldini olish, tashxis qo'yish va davolashning zamonaviy texnologiyalarini yaratish va amaliyotga joriy etish» mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan (2018-2023 yy.).

**Tadqiqotning maqsadi:** COVID-19 bilan kasallangan bemorlar son suyagi boshchasidagi tuzilmalarining patomorfologik o'zgarishlarni aniqlash.

**Tadqiqotning vazifalari:**

### **Tadqiqotning vazifalari:**

- COVID-19 bilan kasallangan bemorlar son suyagi boshchasidagi o'zgarishlarni o'rganish;
- COVID-19 bilan kasallangan bemorlar son suyagi boshchasidagi o'zgarishlarning morfologik va morfometrik jihatlaridagi farq-tafovutlarni ochib berish;
- Olingan natijalar asosida son suyagi boshchasidagi aseptik nekrozni patomorfologiyasini asoslash va qiyosiy baho berish;
- COVID-19 bilan kasallangan bemorlar son suyagi boshchasidagi patomorfologik o'zgarishlarni oldini olish yuzasidan tegishli tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqot obyekt.** COVID-19 bilan kasallangan turli yoshdagi bemorlar son suyagi boshchasi (112 holat) olindi. COVID-19 bilan kasallangan bemorlar kasallanish muddati bo'yicha bemorlar son suyagi boshchasi (102 holat) olindi.

**Tadqiqot predmeti sifatida.** COVID-19 bilan kasallangan bemorlar son suyagi boshchasidagi tuzilmalari: suyak pardasi, son boshchasida joylashgan qon tomir holati va qonning reologik xususiyatlari, xondrositlar va osteoklastlarning morfometrik ko'rsatkichlarini aniqlash.

**Tadqiqot usullari.** Makroskopik va mikroskopik tekshiruvlar, son suyagi boshchasi tuzilmalaridan tayyorlangan gistologik kesmalarni gematoksilin-eozin usulida, Van-gizon bo'yicha, morfometrik usullar, statistik tahlil.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati COVID-19 bilan kasallangan bemorlar son suyagi boshchasi tuzilmalarining o'zgarish jihatlarini bemorlar yoshi bo'yicha qiyosiy morfologik taqqoslash orqali bugungacha ma'lum bo'lgan ma'lumotlarni to'ldirish bilan izohlanadi. Xuddi shu ma'lumotlar son suyagi boshchasi nekrotik holatlarida kompensator imkoniyatlarni rivojlantirishda foydali bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati yuqoridagi tuzilmalarni o'rganishdan olingan natijalar COVID-19 bilan kasallangan bemorlar son suyagi boshchasi tuzilmalarining zararlanish jihatlarini patologoanatomik diagnozni asoslashda qo'shimcha differensial-diagnostik mezonlar ishlab chiqiladi. Olingan natijalar COVID-19 bilan kasallangan bemorlar son suyagi boshchasidagi o'zgarishlarni profilaktik chora-tadbirlar ishlab chiqarish uchun ishlatishi mumkin.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

COVID-19 bilan kasallangan bemorlar son suyagi boshchasidagi morfologik o'zgarishlarning turli yoshga xos jihatlarini bir-biridan farq qilishi asoslangan;

COVID-19 bilan kasallangan bemorlar son suyagi boshchasidagi o'zgarishlar kasallik muddatlari oshgan sari ulardagi morfometrik ko'rsatkichlar ortib borishi, hamda destruktiv o'zgarishlar, sklerotik jarayon intensivligi oshishi, qon tomir komponenti, shuningdek tog'ay va suyak to'qimasida turli yosh va kasallik davomiyligi bilan bog'liq jarayonlar isbotlangan;

Son suyagi boshchasi tuzilmalaridagi distrofik va nekrotik o'zgarishlarning oshishi, COVID-19 bilan kasallangan bemorlar yoshiga va kasallikning muddatiga mutanosibli asoslangan;

COVID-19 bilan kasallangan bemorlar son suyagi boshchasidagi ishemik tipdagi o'zgarishlar, qon tomirlar devorining o'tkazuvchanligi oshishi natijasidagi diapedez qon quyilishlar, tog'ay va suyak to'qimalaridagi destruktiv

o'zgarishlarning qiyosiy xususiyatlari o'zgarmasligini, kasallik muddati davomiyligi oshgan sayin son suyagi boshchasi strukturasi sklerotik jarayonlarning rivojlanish imkoniyatini ortishi isbotlangan;

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** ishda qo'llanilgan nazariy yondashuv va usullar, olib borilgan tadqiqotlarning uslubiy jihatdan to'g'riligi, etarli darajada material tanlanganligi, qo'llanilgan usullarning zamonaviyligi, ularning biri ikkinchisini to'ldiradigan morfologik, morfometrik, stereomikroskopik va statistik usullar asosida Xalqaro va mahalliy mualliflar ma'lumotlari bilan taqqoslanganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati** yuqoridagi tuzilmalarni o'rganishdan olingan natijalar COVID-19 bilan kasallangan bemorlar son suyagi boshchasi tuzilmalarining zararlanish jihatlari patologoanatomik tashxisni asoslashda qo'shimcha qiyosiy-tashxislash mezonlari ishlab chiqiladi. Olingan natijalar orqali son suyagi boshchasidagi o'zgarishlarning sklerotik jarayonlar rivojlanishidagi o'rnini baholash uchun ishlatilishi mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Samarqand davlat tibbiyot universiteti muvofiqlashtiruvchi ekspert kengashining 2023-yil 6-noyabrdagi 78-son xulosasiga asosan (ilmiy yangilikni boshqa sog'liqni saqlash muassasalariga joriy etish bo'yicha Sog'liqni saqlash vazirligiga Samarqand davlat tibbiyot universitetining 2023-yil 24-noyabrdagidagi 67-sonli xati taqdim etilgan):

birinchi ilmiy yangilik: COVID-19 bilan kasallangan bemorlar son suyagi boshchasidagi morfologik o'zgarishlarning turli yoshga xos jihatlari bir-biridan farq qilishiligi asoslangani O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligining Sirdaryo viloyati shoshilinch tez tibbiy markazi bo'yicha (2023-yil 24-oktyabrdagi 154-sonli) buyruq bilan patologik anatomiya bo'limi amaliyotiga va Navoiy viloyati shoshilinch tez tibbiy markazi bo'yicha (2023-yil 26-oktyabrdagi 100-sonli) buyruq bilan patologik anatomiya bo'limi amaliyotiga va Surxandaryo viloyati patologik anatomiya byurosi bo'yicha (2023-yil 28-oktyabrdagi 33-sonli) buyruq bilan amaliyotga joriy etilgan. Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi quyidagilardan iborat: tavsiya etilgan algoritmi va usullarning patologik anatomiya amaliyotiga joriy etilishi natijasida COVID-19 bilan kasallangan bemorlar son suyagi boshchasidagi morfologik o'zgarishlarning patologoanatomik tekshiruvlarga doir xulosalarining sifati oshirilgan va ularning ishonchliligi, hamda asoslanishi va obyektivligi ta'minlagan.

Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi quyidagilardan iborat: tavsiya etilgan usullarni amalga oshirish uchun 3,5 va 4 kun talab qilinadi, an'anaviy tarzda tekshiruv o'tkazishga esa 8-10 kun talab qiladi, chunki an'anaviy usulda juda ko'plab qo'shimcha tekshirishlar va vrach mutaxassislar maslahatlari olinishi talab etiladi. Ko'rinib turibdiki, tavsiya etilgan usuldan foydalangan holda patologik anatomiya tadqiqotlarini o'tkazish vaqtini 2-2,5 barobar qisqartiradi va taklif qilingan usulning qiymati har bir holat uchun o'rtacha 55 000 so'mni, an'anaviy usulda esa 110 000 so'mni tashkil qiladi, ya'ni xarajat mablag'larini 2-2,5 barobarga qisqartirish imkonini bergan;

**Xulosa:** Tavsiya etilgan usuldan foydalangan holda patologoanatomik tekshirishlarini o'tkazish vaqtini qariyb 2-2,5 barobarga qisqartiradi va taklif qilingan usulning xarajatlari har bir holat uchun o'rtacha 55 000 so'mni, an'anaviy usulda esa 110 000 so'mni tashkil qiladi.

ikkinchi ilmiy yangilik: COVID-19 bilan kasallangan bemorlar son suyagi boshchasidagi o'zgarishlar kasallik muddatlari oshgan sari ulardagi morfometrik ko'rsatkichlar ortib borishi, hamda destruktiv o'zgarishlar sklerotik jarayon intensivligi oshishi, qon tomir komponenti, shuningdek tog'ay va suyak to'qimasida turli yosh va kasallik davomiyligi bilan bog'liq jarayonlar isbotlangani O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligining Sirdaryo viloyati shoshilinch tez tibbiy markazi bo'yicha (2023-yil 24-oktyabrdagi 154-sonli) buyruq bilan patologik anatomiya bo'limi amaliyotiga va Navoiy viloyati shoshilinch tez tibbiy markazi bo'yicha (2023-yil 26-oktyabrdagi 100-sonli) buyruq bilan patologik anatomiya bo'limi amaliyotiga va Surxandaryo viloyati patologik anatomiya byurosi bo'yicha (2023-yil 28-oktyabrdagi 33-sonli) buyruq bilan amaliyotga joriy etilgan. Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi quyidagilardan iborat: Tadqiqot natijalarining patologik anatomiya amaliyotiga joriy etilishi natijasida COVID-19 bilan kasallangan bemorlar son suyagi boshchasidagi o'zgarishlarini ishonchli tarzda aniqlash imkon bergan. Bundan tashqari, COVID-19 bilan kasallangan bemorlar son suyagi boshchasidagi o'zgarishlar kasallik muddatlari oshgan sari ulardagi morfometrik ko'rsatkichlar ortib borishi asoslab berilgan. Bu esa o'z navbatida, patologoanatomik xulosalarining sifati va ularning ishonchliligi, hamda asoslanishini ta'minlagan. Shu munosabat bilan, qo'shimcha yoki takroriy tekshiruvlar o'tkazishning oldini olgan, ya'ni ijro muddatini keskin qisqartirgan.

Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi quyidagilardan iborat: Tavsiya etilgan patologianatomik tekshiruv uslublarini amalga oshirish uchun  $2 \pm 0,2$  kun talab qilinadi, an'anaviy tarzda tekshiruv o'tkazishda esa 5-6 kun talab qiladi, chunki an'anaviy usulda o'lim vaqtini aniqlash masalasida ko'plab qo'shimcha tekshirishlar va vrach mutaxassislar maslaxatlari olinishi talab etiladi. Ko'rinib turibdiki, tavsiya etilgan usuldan foydalangan holda patologik anatomiya tadqiqotlarini o'tkazish vaqtini 2-2,5 barobar qisqartiradi va taklif qilingan usulning qiymati har bir holat uchun o'rtacha 40 000 so'mni, an'anaviy usulda esa 80 000 so'mni tashkil qiladi, ya'ni xarajat mablag'larini qisqartiradi.

**Xulosa:** COVID-19 bilan kasallangan bemorlar son suyagi boshchasidagi o'zgarishlar aniqlash holatlarida tavsiya etilgan usuldan foydalangan holda patologik anatomiya tadqiqotlarini o'tkazish bunday so'rovlarni o'tkazish vaqtini taxminan 2-2,5 baravar qisqartiradi va taklif qilingan usulning qiymati har bir holat uchun o'rtacha 40 000 so'mni, an'anaviy usulda esa 80 000 so'mni tashkil qiladi.

Uchinchi ilmiy yangilik: son suyagi boshchasi tuzilmalaridagi distrofik va nekrotik o'zgarishlar oshishi, COVID-19 bilan kasallangan bemorlar yoshiga va kasallikning muddatiga mutanosibliigi asoslangani O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligining Sirdaryo viloyati shoshilinch tez tibbiy markazi bo'yicha (2023-yil 24-oktyabrdagi 154-sonli) buyruq bilan patologik anatomiya bo'limi amaliyotiga va Navoiy viloyati shoshilinch tez tibbiy markazi bo'yicha (2023-yil 26-oktyabrdagi 100-sonli) buyruq bilan patologik anatomiya bo'limi

amaliyotiga va Surxandaryo viloyati patologik anatomiya byurosi bo'yicha (2023-yil 28-oktyabrdagi 33-sonli) buyruq bilan amaliyotga joriy etilgan. Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi quyidagilardan iborat: Tadqiqot natijalarining patologik anatomiya amaliyotiga joriy etilishi natijasida COVID-19 bilan kasallangan bemorlar son suyagi boshchasi tuzilmalaridagi distrofik va nekrotik o'zgarishlar shakllanishi dinamikasining morfologik ko'rinishlari va morfometrik ko'rsatkichlarining o'ziga xos jihatlari va ularning kasallik muddati va bemorlarning yoshiga nisbatan, farq tafovutlarini ishonchli tarzda aniqlash imkonini bergan. COVID-19 bilan kasallangan bemorlar son suyagi boshchasi tuzilmalaridagi distrofik va nekrotik o'zgarishlar kasallikning erta muddatlarida va yosh bemorlarda patomorfologik o'zgarishlarning yuzaki o'zgarishlar bilan namoyon bo'lishi asoslangan. Bu esa o'z navbatida, patologik anatomiya xulosalarining sifati va ularning ishonchliligi, hamda asoslanishini ta'minlagan. Shu munosabat bilan, qo'shimcha yoki takroriy patologoanatomik tekshiruvlar o'tkazishning oldini olgan, patologik anatomiya tekshiruvlarining muddatini keskin qisqartirgan.

Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi quyidagilardan iborat: tavsiya etilgan uslublarga ko'ra, patologoanatomik tekshiruvini amalga oshirish uchun  $2,1 \pm 0,2$  kun kerak bo'ladi va ushbu turdagi tekshiruvni an'anaviy tarzda o'tkazish uchun  $5 \pm 0,7$  kun talab qilinadi, bu odatda morfologik va morfometrik ko'rsatkichlarni turli uskunalarda qo'shimcha tekshirish va mutaxassislar maslahatlari zarurati bilan bog'liq bo'lgan. Ko'rinib turibdiki, tavsiya etilgan usul yordamida patologik anatomiya tadqiqotlarini o'tkazish bunday tekshirishlarni o'tkazish vaqtini 1,5-2,0 baravar qisqartiradi va taklif qilingan usul xarajatlari har bir holat uchun 38 500 so'mga, an'anaviy usul bilan esa kamida 78 000 so'mni tashkil qiladi, ya'ni xarajat mablag'larini 2 barobarga qisqartiradi.

**Xulosa:** COVID-19 bilan kasallangan bemorlar son suyagi boshchasi tuzilmalaridagi distrofik va nekrotik o'zgarishlar aniqlashda tavsiya etilgan usul yordamida patologianatomik tadqiqotlarini o'tkazish bunday tekshiruvlarni o'tkazish vaqtini 1,5-2,0 baravar qisqartiradi va taklif qilingan usul xarajatlari har bir holat uchun 38 500 so'mga, an'anaviy usul bilan esa kamida 78 000 so'mni tashkil qiladi.

To'rtinchi ilmiy yangilik: COVID-19 bilan kasallangan bemorlar son suyagi boshchasidagi ishemik tipdagi o'zgarishlar, qon tomirlar devorining o'tkazuvchanligi oshishi natijasidagi diaperez qon quyilishlar va tog'ay va suyak to'qimalaridagi destruktiv o'zgarishlarning qiyosiy xususiyatlari o'zgarishini kasallik muddati davomiyligi oshgan sayin, son suyagi boshchasi strukturasi sklerotik jarayonlarning rivojlanish imkoniyatini ortishi isbotlangani O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligining Sirdaryo viloyati shoshilinch tez tibbiy markazi bo'yicha (2023-yil 24-oktyabrdagi 154-sonli) buyruq bilan patologik anatomiya bo'limi amaliyotiga va Navoiy viloyati shoshilinch tez tibbiy markazi bo'yicha (2023-yil 26-oktyabrdagi 100-sonli) buyruq bilan patologik anatomiya bo'limi amaliyotiga va Surxandaryo viloyati patologik anatomiya byurosi bo'yicha (2023-yil 28-oktyabrdagi 33-sonli) buyruq bilan amaliyotga joriy etilgan. Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi quyidagilardan iborat: tadqiqot natijalari bo'yicha COVID-19 bilan kasallangan bemorlarning kasallik muddatlari va turli yoshli bemorlar son suyagi boshchasining tog'ay, suyak to'qimalari va qon tomir

tuzilmalarida patomorfologik o'zgarishlarni ishonchli aniqlash imkonini beradi va kasallikni turli muddatlarida va turli yoshdagi bemorlarda son suyagidagi o'zgarishlarni o'zga xosligini aniqlash uchun xizmat qiladi. COVID-19 bilan kasallangan bemorlarning kasallik muddatlari va yoshga doir son suyagi boshchasidagi o'zgarishlar yuzasidan ishlab chiqilgan tavsiyalar, patologik anatomiya amaliyotiga joriy etilishi natijasida, patologik anatomiya xulosalarining obyektivligi va ishonchliligi, hamda asoslanishini ta'minlagan. Bu esa o'z navbatida, son suyagi boshchasidagi o'zgarishlarni erta aniqlash va bemorlar e'tirozlarini bartaraf etish imkonini bergan.

Tavsiya etilgan algoritm va uslublarga ko'ra, patologoanatomik tekshiruvni amalga oshirish uchun  $2,0 \pm 0,2$  kun kerak bo'ladi va ushbu turdagi tekshiruvni an'anaviy tarzda o'tkazish uchun  $4-5 \pm 0,4$  kun davomida talab qilinadi, bu odatda son suyagi boshchasidagi morfologik o'zgarishlarni qo'shimcha tekshirish, hamda ish materiallari ma'lumotlarini o'rganish bilan bog'liq. Ko'rinib turibdiki, tavsiya etilgan usul yordamida patologoanatomik tadqiqotlarini o'tkazish vaqtini 1,0-1,5 baravar qisqartiradi va taklif qilingan usul xarajatlari har bir holat bo'yicha 45 000 so'mdan 65 000 so'mgacha, an'anaviy usul bilan esa kamida 130 000 so'mni tashkil qiladi, ya'ni xarajat mablag'larini qisqartiradi.

**Xulosa:** Tavsiya etilgan usul yordamida patologik anatomiya tadqiqotlarini o'tkazish vaqtini 1,0-1,5 baravar qisqartiradi va taklif qilingan usul xarajatlari har bir holat bo'yicha 45 000 so'mdan dan 65 000 so'mgacha, an'anaviy usul bilan esa kamida 130 000 so'mni tashkil qiladi, ya'ni xarajat mablag'larini tejaydi.

**Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 2 ta Xalqaro va 3 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertasiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestasiya Komissiyasining tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori dissertasiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 3 tasi Respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertasiya tarkibi kirish, V bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertasiyaning hajmi 116 betni tashkil etgan.

## DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, ularni ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, ishlarning aprobasiyasi natijalari, nashr qilingan ishlar va dissertasiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertasiyaning «**COVID-19 bilan kasallangan bemorlar son suyagi boshchasi tuzilmalarining morfologik jihatlarini**» deb nomlangan birinchi bobida COVID-19 kasalligida son suyagi boshchasidagi o‘zgarishlarni o‘rganish bo‘yicha jahon adabiyotlaridagi ma‘lumotlarni batafsil tahlili natijalari keltirilgan. Adabiyotlar tahlili ma‘lumotlarning chalkashligi va turli xilligi, COVID-19 kasalligida son suyagi boshchasidagi tuzilmalaridagi o‘zgarishlarni baholash bo‘yicha aniq tavsiyalar yo‘qligini ko‘rsatdi. Ushbu kasallikda son suyagi boshchasining gialinli tog‘ay qismi, subxondral suyak to‘qimasi va qon tomir tuzilmalaridagi o‘zgarishlarga alohida to‘xtab o‘tilgan. COVID-19 kasalligida son suyagidagi o‘zgarishlarni kasallik muddati va yoshga bog‘liq jihatlarini to‘liq o‘rganilishi kerakligi asoslab berilgan.

Dissertasiyaning «**COVID-19 kasalligida son suyagi boshchasi tuzilmalarining morfologiyasini baholashning uslubiy jihatlarini**» deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot obyekti va predmeti haqida ma‘lumot berilgan. Tadqiqotda belgilangan vazifalarni hal etish uchun COVID-19 kasalligi mavjud bo‘lgan RITOIATM Samarqand filialida endoprtezlash jarrohlik muolajalarini olib turadigan jami 214 nafar bemor son suyagi boshchasidan olingan biopatlar o‘rganilgan.

Tadqiqotning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda COVID-19 bilan kasallangan son suyagi boshchasidagi strukturaviy o‘zgarishlarini aniqlashga yo‘naltirilgan tekshiruvda tadqiqot materiallari 2 guruhga bo‘lindi:

**I-guruh:** COVID-19 bilan kasallangan turli yoshdagi bemorlar son suyagi boshchasi (112 holat) olindi.

**II-guruh:** COVID-19 bilan kasallangan bemorlar kasallanish muddati bo‘yicha bemorlar son suyagi boshchasi (102 holat) olindi.

COVID-19 bilan kasallangan bemorlar kasallanish muddati bo‘yicha quyidagi 5 ta kichik guruhga bo‘lindi:

**1-guruh:** Kasallik o‘tkazilgandan so‘ng 6 oygacha bo‘lgan muddatdagi son suyagi boshchasi namunalari;

**2-guruh:** Kasallik o‘tkazilgandan so‘ng 12 oygacha bo‘lgan muddatdagi son suyagi boshchasi namunalari;

**3-guruh:** Kasallik o‘tkazilgandan so‘ng 18 oygacha bo‘lgan muddatdagi son suyagi boshchasi namunalari;

**4-guruh:** Kasallik o‘tkazilgandan so‘ng 24 oygacha bo‘lgan muddatdagi son suyagi boshchasi namunalari;

**5-guruh:** Kasallik o'tkazilgandan so'ng 24 oydan ko'p bo'lgan muddatdagi son suyagi boshchasi namunalari;

COVID-19 bilan kasallangan bemorlar yoshi JSST kategoriyasi bo'yicha: to'rta guruhning uchta guruhi ajratib olindi: yoshlar (18-44 yosh); o'rta yoshlilar (45-59 yosh) va katta yoshlilar (60-74). Tadqiqot maqsadini chuqurroq va aniqroq amalga oshirish uchun ushbu yosh guruhlari quyidagi 5 ta kichik guruhga bo'lindi:

**1-guruh:** COVID-19 bilan kasallangan bemorlar, 22-30 yoshdagilarning son suyagi boshchasi namunalari;

**2-guruh:** COVID-19 bilan kasallangan bemorlar, 31-40 yoshdagilarning son suyagi boshchasi namunalari;

**3-guruh:** COVID-19 bilan kasallangan bemorlar, 41-50 yoshdagilarning son suyagi boshchasi namunalari;

**4-guruh:** COVID-19 bilan kasallangan bemorlar, 51-60 yoshdagilarning son suyagi boshchasi namunalari;

**5-guruh:** COVID-19 bilan kasallangan bemorlar, 60 yoshdan kattalar son suyagi boshchasi namunalari;

Tadqiqot guruhlarining jinsi, yoshi va yashagan vaqtiga doir ma'lumotlar quyidagi jadval (1-jadvalga qarang) va diagrammada ko'rsatilgan:

**1-Jadval**

**Tadqiqot materiallarining tasnifi**

Jinsi	COVID-19 bilan kasallangan bemorlarning kasallik muddati bo'yicha					Jami	
	6-11 oylik	12-17 oylik	18-23 oylik	24 oylik	24 oydan<		
Erkak	8	22	23	17	10	80	<b>112</b>
Ayol	2	9	12	7	2	32	
<b>Jami</b>	10	31	35	24	12	112	
% / %	80/20	70,9/29,1	66/34	71/29	84/16	72/28	
COVID-19 bilan kasallangan bemorlarning yosh kategoriyasi bo'yicha taqsimlanishi							
Jinsi	22-30 yosh	31-40 yosh	41-50 yosh	51-60 yosh	60 yosh<	Jami	
Erkak	6	9	36	18	10	79	<b>102</b>
Ayol	-	3	12	7	1	23	
<b>Jami</b>	<b>6</b>	<b>12</b>	<b>38</b>	<b>25</b>	<b>11</b>	102	
% / %	100/0	75/25	68/32	72/28	91/9	76/24	

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, **COVID-19 bilan kasallangan bemorlar kasallik muddati bo'yicha** aksariyatini (72%) erkaklar, 28% ni ayollar tashkil etadi (1-rasmga qarang). **COVID-19 bilan kasallangan bemorlarning 6 oylik kasallik muddati bo'yicha** jami 10 nafar bo'lib, shulardan 80% erkak, 20% i ayollardir. Xastalikning 12 oylik muddati bo'yicha jami 31 nafar bemor bo'lib, shulardan 70,9% erkaklar, 29,1% ayollar. Xastalangan bemorlarning 18 oylik muddatidagi bemorlar soni jami 35 nafar bo'lib, shulardan 66% erkaklar, 34% ayollardir. Xastalikning 24-chi oyida jarrohlik amaliyoti o'tkazgan bemorlar soni jami 24 nafar bo'lib, shulardan 71% erkak, 29% ayollardir. COVID-19 bilan

xastalanib, 24 oydan so'ng jarrohlik amaliyoti o'tkazgan bemorlar soni jami 12 nafar bo'lib erkaklar va ayollar o'rtasidagi o'zaro nisbat 84/16 % ni tashkil etadi.

COVID-19 bilan kasallangan turli yoshlardagi bemorlar jami 102 nafar bo'lib, ulardan 73 nafari (76 %) erkak, 23 nafari (28%) ayollardir.

COVID-19 bilan kasallanib, son suyagi aseptik nekrozi rivojlangan va jarrohlik amaliyoti o'tkazilgan 22-30 yoshlilar 6 holatni tashkil etib hammasi erkaklardir. 30-40 yoshlilar 12 holatni tashkil etadi, shundan 75% erkak, 25% ayol, 41-50 yoshli son suyagi boshchasida jarrohlik amaliyotini amalga oshirganlar 38 holat bo'lib, shundan 68% erkaklar, 32% ayollardir, 51-60 yoshda jarrohlik amaliyotini o'tkazganlar 25 holatni tashkil etgan bo'lib, shundan 72% erkaklar, 28% ayollarga to'g'ri keladi, 60 yoshdan katta bemorlar 11 holat bo'lib, shundan 91% erkak, 9% ayollardir. Bularning barchasi Respublika Ixtisoslashtirilgan Travmatologiya va Ortopediya Ilmiy Amaliy Tibbiyot Markazi Samarqand filiali jarrohlik amaliyotini o'tkazgan bemorlardir.

Tadqiqotimizga tanlab olingan 2 guruh obyektlarda ham son suyagi boshchasining morfologik va morfometrik jihatlari o'rganildi. Bunda maxsus gistologik tekshiruv uchun material jarrohlik amaliyoti bilan olingan son suyagi boshchasidan olindi. Olingan to'qima bo'lakchalari 10% neytral formalinda fiksasiya qilindi, spirtli batareya orqali o'tkazildi, parafinli bloklar tayyorlandi. Tayyorlangan gistologik qirqmalar gematoksilin va eozin, Van-Gizon, Veygert usullari bilan bo'yaldi. Gistologik preparatlar bo'yicha son suyagi boshchasining tog'ay to'qimasi, xondrositlar, osteoblastlar va osteoklastlar, turli kalibrli qon tomirlar, tomir ichidagi qonning reologik xususiyatlari va perivaskulyar bo'shliq (PVB) ham o'rganildi. Suyak, tog'ay va qon tomir strukturasi obyektiv baholashda morfometrik tekshiruv o'tkazildi. Buning uchun G.G. Avtandilov tomonidan tavsiya etilgan 4 ta kichik kvadratcha (100 ta nuqtadan iborat) nuqtali to'r ishlatildi. Morfometrik o'lchov mikroskopning ob. 20 x ok. 10 o'lchamida amalga oshirildi. Bunda osteoklastlar, xondrositlarga tushgan nuqtalar, shuningdek PVB va unda joylashgan qon tomirlari soni hisoblandi. Shuningdek osteoklastlar, xondrositlar va qon tomir strukturasi morfometrik jihatlari o'rganish uchun G.G. Avtandilov tomonidan tavsiya etilgan okulyar mikrometrdan foydalanildi.

Morfometrik ko'rsatkichlarining ishonchliligi (t), ko'rsatkichlar minimal xatosi (m) va asoslilik darajasi (p) aniqlandi.

Dissertasiyaning «**Covid-19 bilan kasallangan bemorlarning kasallik muddatlari bo'yicha son suyagi boshchasidagi tuzilmalarining morfologik - morfometrik jihatlari**» deb nomlangan uchinchi bobida Samarqand viloyatida COVID-19 kasalligiga chalingan endoprotezlash jarrohlik amaliyoti bilan olingan son suyagi boshchasi tuzilmalarining morfologik va morfometrik tahlili o'tkazildi.

COVID-19 kasalligiga chalinib, kasallikdan so'ng 6 oy o'tib, endoprotezlash jarrohlik amaliyotini o'tkazgan bemorlar son suyagi boshchasi gialin pardasida o'choqli nekrobiotik o'zgarishlar, suyak usti pardasi qon tomirlari devorida destruktiv jarayonlar rivojlanadi. Qon tomirlar devorida shishinish va endoteliositlarning total deskvamasiyasi va ularning o'rnida fibroz to'qima o'sganligi aniqlanadi.

COVID-19 kasalligiga chalinib, kasallikdan so'ng 12 oy o'tib, endoprotezlash jarrohlik amaliyotini o'tkazgan bemorlar son suyagi boshchasi gialin pardasida o'choqli nekrotik o'zgarishlar, ularning o'rnini fibroz to'qima egallashi, suyak ustunlarining markazida va yon atrofida osteonekroz jarayonining rivojlanishi hisobiga ularning ingichkalashuvi qayd etildi. Suyak usti pardasi suyak to'qimasida destruktiv jarayonlar rivojlanishi, qon tomirlar devorida fibrositlarning faol proliferasiyasi tufayli devorining qalinlashuvi va bo'shlig'ining torayishi kuzatiladi.

COVID-19 kasalligiga chalinib, kasallikdan so'ng 18 oy o'tib, endoprotezlash jarrohlik amaliyotini o'tkazgan bemorlar son suyagi boshchasi gialin pardasida o'choqli nekrotik o'zgarishlar hisobiga ularning o'rnini aksariyat maydonlarda fibroz to'qima egallaydi. Suyak ustunlari markaziy qismidagi osteoklastlarda gidropik o'zgarishlarning avj olishi va fibroblastlar proliferasiyasining faollashuvi kuzatiladi. Suyak usti pardasi qon tomirlari devorida sklerotik jarayonlarning kuchayib borishi qon tomirlar bo'shlig'ini yanada torayishiga sabab bo'ladi.

COVID-19 kasalligiga chalinib, kasallikdan so'ng 24 oy o'tib, endoprotezlash jarrohlik amaliyotini o'tkazgan bemorlar son suyagi boshchasi gialin pardasining katta maydonlarida emirilish, ularning o'rnini fibroz to'qima egallashi qayd etilsa, suyak to'qimasi ustunlarining ingichkalashuvi, hamda markaziy qismida osteonekroz hisobiga har xil kattalikdagi bo'shliqlar shakllanishi aniqlandi, suyak usti pardasi qon tomirlari devorida sklerotik jarayonlarning avj olishi hisobiga qon tomirlar bo'shlig'ining yanada torayishi qayd etildi. Qon tomirlar bo'shlig'ining torayishiga javoban tomirlar devorida vaskulirizasiya jarayoni kelib chiqadi, qon tomirlar devorida vaskulirizasiya aniqlanadi(1-rasmga qarang).



**1-rasm. Son suyagi boshchasi suyak usti pardasi qon tomirlaridagi morfologik o'zgarishlar. Gematoksilin-eozinda bo'yalgan. Ob.40, ok.10.**

COVID-19 kasalligiga chalinib, kasallikdan so'ng 24 oydan ko'p oy o'tib, endoprotezlash jarrohlik amaliyotini o'tkazgan bemorlar son suyagi boshchasi gialin pardasida o'rnida hosil bo'lgan fibroz to'qima maydonida kichik orolchalar shaklidagi xondrositlarning o'rnida bo'shliqchalar shakllanganligi aniqlandi. Suyak ustunlarining diffuz holatdagi osteonekrozi hisobiga sekvestrlar paydo bo'lishi kuzatildi. Suyak usti pardasi qon tomirlarida fibroblastlar proliferasiyasining faollashuvi tufayli sklerotik jarayonlarning tezlashishi natijasida qon tomirlar bo'shlig'ining keskin torayishi kelib chiqishi qayd etildi. Kasallik muddatlari oshgan sari ushbu patomorfologik jarayonlarning ortib borishi COVID-19 kasalligiga

chalingan bemorlar son suyagi boshchasida osteonekroz jaryonini kuchayib borishini ta'minlaydi (2-rasmga qarang).



**2-rasm. Bemor S. kasallik o'tkazgandan so'ng, 24 oydan ko'p oy o'tib jarrohlik amaliyoti o'tkazilgan. Son suyagi boshchasining makroskopik tasviri.**

Kasallikning erta muddatlariga nisbatan (6 oylik) 12 oylik muddatda son suyagi boshchasi tog'ay (pardasining) to'qimasida fibroz to'qima egallagan maydon, tog'ay to'qimasi egallagan maydonning ortib borishi qayd etildi. Kasallikning oylik muddatida esa tog'ay to'qimasi va fibroz to'qima egallagan maydonning o'zaro tenglashishi kuzatiladi. Shundan so'ng, kasallikning muddatlari ortgan sari tog'ay to'qimasi egallagan maydon hajmining kamayishi, fibroz to'qima egallagan maydon hajmining oshishi aniqlandi.

COVID-19 kasalligiga chalingan bemorlar kasalligining 6 oyligiga nisbatan 12 oyligida vakuollashgan osteoklastlar egallagan maydon hajmi ortib bordi. Kasallikning 18 oyiga kelib, nisbatan sog'lom va vakuollashgan osteoklastlar egallagan maydonning tenglashi kuzatildi. Kasallikning keyingi muddatlarida vakuollashgan osteoklastlar egallagan maydon hajmining ortib borishi, nisbatan sog'lom osteoklastlar egallagan maydon hajmi kamayib borishi qayd etildi.

Kasallik muddatlari qanchalik oshsa, osteonekroz jarayoni shunchalik kuchayib bordi, bu esa suyak ustunlarini turli o'lchamlarda ingichkalashuvi bilan namoyon bo'ldi.

Shunday qilib, COVID-19 bilan xastalangan bemorlarda son suyagi boshchasidagi morfologik o'zgarishlar kasallik muddatlariga mos ravishda, distrofik, nekrotik va fibroz to'qimaning o'sib kirishi ko'rinishida ortib bordi. Kasallikdan ikki yil o'tgach, bemorlar son suyagi boshchasidagi gialin tog'ay to'qimasining o'rnini fibroz to'qima egallaydi.

COVID-19 kasalligiga chalinib, kasallikdan turli muddat o'tib, endoprotezlash jarrohlik amaliyotini o'tkazgan bemorlar son suyagi boshchasi tuzilmalarining morfometrik ko'rsatkichlari 2-jadvalda keltirilgan.

COVID-19 kasalligiga chalinib, kasallikdan turli muddat o'tib, endoprotezlash jarrohlik amaliyotini o'tkazgan bemorlar son suyagi boshchasi tog'ay (pardasining)

to‘qimasi egallagan maydon hajmi kasallik muddatlari oshishi bilan kamayib, fibroz to‘qima egallagan maydon hajmi ortib borishi qayd etildi.

## 2-Jadval

### COVID-19 kasalligiga chalinib, kasallikdan turli muddat o‘tib, endoprotezlash jarrohlik amaliyotini o‘tkazgan bemorlar son suyagi boshchasi tog‘ay (pardasining) to‘qimasining morfometrik ko‘rsatkichlari

Kasallik muddatlari	Tog‘ay to‘qimasi egallagan maydon	Fibroz to‘qima egallagan maydon	Umumiy maydon
6 oylik	78,9±0,66	21,0±0,67	99,9±1,33
12 oylik	63,8±0,42***	36,2±0,42**	100,0±0,84
18 oylik	45,9±0,34	54,0±0,34	99,9±0,68
24 oylik	29,8±0,48***	70,2±0,48***	100±0,96
24 oylikdan ko‘p	27,0±0,59***^^^°°	72,6±0,79***^^^°°°	99,6±1,38

Eslatma: \* - 1-guruh ma‘lumotlariga nisbatan farqlar sezilarli (\* - P<0,05, \*\*\* - P<0,001); ^ - 2-guruh ma‘lumotlariga nisbatan farqlar sezilarli (^ - P<0,05, ^^ - P<0,01, ^^ - P<0,001); ° - 3-guruh ma‘lumotlariga nisbatan farqlar sezilarli (° - P<0,05, °° - P<0,01, °°° - P<0,001)

Jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, COVID-19 kasalligiga chalinib, kasallikdan 6 oy o‘tgach endoprotezlash jarrohlik amaliyoti o‘tkazgan bemorlar son suyagi boshchasidagi tog‘ay egallagan maydon hajmi 78,9±0,66 ni, fibroz to‘qima egallagan maydon esa, 21,0±0,67 tashkil etdi. 12 oylik muddatda mos ravishda bu ko‘rsatkichlar 63,8±0,42 va 36,2±0,42 ga tengdir. 18 oylik muddatda tog‘ay (45,9±0,34) va fibroz to‘qima (54,0±0,34) egallagan maydonning morfometrik ko‘rsatkichlari tenglashishi kuzatildi. Shundan so‘ng, (24 oylikda) fibroz to‘qima egallagan maydon hajmining (70,2±0,48), tog‘ay egallagan maydonga nisbatan (29,8±0,48) oshishi qayd etildi. So‘nggi muddatlarda mos ravishda tog‘ay egallagan maydon 27,0±0,59 va 72,6±0,79 ni tashkil etdi.

Shunday qilib, kasallikning erta muddatlariga nisbatan (6 oylik) 12 oylik muddatda son suyagi boshchasi tog‘ay (pardasining) to‘qimasida fibroz to‘qima egallagan maydon, tog‘ay to‘qimasi egallagan maydonning ortib borishi qayd etildi. Kasallikning oylik muddatida esa tog‘ay to‘qimasi va fibroz to‘qima egallagan maydoning o‘zaro tenglashishi kuzatildi. Shundan so‘ng kasallikning muddatlari ortgan sari tog‘ay to‘qimasi egallagan maydon hajmining kamayishi, fibroz to‘qima egallagan maydon hajmining oshishi aniqlandi.

COVID-19 kasalligiga chalinib, kasallikning turli muddatlarida, endoprotezlash jarrohlik amaliyotini o‘tkazgan bemorlar son suyagi boshchasi suyak to‘qimasi ustunlarining osteonekrozi yosh o‘tgan sari jadal kechishi kuzatildi (3-jadvalga qarang).

### 3-Jadval

#### COVID-19 kasalligiga chalinib, kasallikdan turli muddat o'tib, endoprotezlash jarrohlik amaliyotini o'tkazgan bemorlar son suyagi boshchasi suyak to'qimasi ustunlarining morfometrik ko'rsatkichlari (mkm)

№	Kasallik muddatlari	Suyak to'qimasi ustunlari
1	6 oylik	2,07±0,012
2	12 oylik	1,68±0,04***
3	18 oylik	1,59±0,05
4	24 oylik	1,51±0,06***
5	24 oylikdan ko'p	1,35±0,08***^^^oo

Eslatma: \* - 1-guruh ma'lumotlariga nisbatan farqlar sezilarli (\* - P<0,05, \*\*\* - P<0,001); ^ - 2-guruh ma'lumotlariga nisbatan farqlar sezilarli (^ - P<0,05, ^^ - P<0,01, ^^ - P<0,001); ° - 3-guruh ma'lumotlariga nisbatan farqlar sezilarli (° - P<0,05, °° - P<0,01, °°° - P<0,001)

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, COVID-19 kasalligiga chalinib, kasallikdan 6 oy o'tgach, endoprotezlash jarrohlik amaliyoti o'tkazgan bemorlar son suyagi boshchasidagi suyak ustunlarining morfometrik ko'rsatkichlari 2,07±0,012 mkmga teng bo'lib, bu ko'rsatkichlar 12 oylik muddatda 1,68±0,04 mkmni tashkil etdi. 18 oylikda mos ravishda 1,59±0,05 mkmga tengdir. 24 oylik muddatda esa, bu ko'rsatkich 1,51±0,06 mkmni tashkil etganligi qayd etildi. Kasallikdan 24 oydan ko'p o'tgan bemorlar son suyagi boshchasidagi subxondral joylashgan suyak ustunlarining ingichkalashuvi yanada ortib uning o'lchamlari 1,35±0,08 mkmni tashkil etdi.

Endoprotezlash jarrohlik amaliyoti o'tkazgan bemorlar son suyagi subxondral soha suyak ustunlarining osteonekrozi, ya'ni ularning kasallikning 6 oylik muddatiga nisbatan 12 oylik muddatda 1,2 barobar (19 %), 18 oylik muddatda 1,3 barobar (23 %) ga, 24 oylik muddatda 1,4 (27 %) va 24 oylikdan ko'p muddatlarda 1,5 barobar (35 %) ga ingichkalashib borishi qayd etildi.

Shunday qilib, kasallik muddatlari qanchalik oshsa, osteonekroz jarayoni shunchalik kuchayib boradi, bu esa suyak ustunlarini turli o'lchamlarda ingichkalashuvi bilan namoyon bo'ldi.

### 4-Jadval

#### COVID-19 kasalligiga chalinib, kasallikdan turli muddat o'tib, endoprotezlash jarrohlik amaliyotini o'tkazgan bemorlar son suyagi boshchasi suyak pardasining qon tomirlarining morfometrik ko'rsatkichlari

Kasallik muddatlari	Qon tomir devori egallagan maydon	Qon tomir bo'shlig'i egallagan maydon	Umumiy maydon
6 oylik	27,4±0,58	14,1±0,53	41,5±1,11
12 oylik	31,0±0,39***	12,4±0,39**	43,4±0,78
18 oylik	38,1±0,33	8,0±0,31	46,1±0,64
24 oylik	42,5±0,49***	6,2±0,25***	48,7±0,74
24 oylikdan ko'p	48,6±0,36***^^^oo	3,1±0,25***^^^ooo	51,7±0,61

Eslatma: \* - 1-guruh ma'lumotlariga nisbatan farqlar sezilarli (\* - P<0,05, \*\*\* - P<0,001); ^ - 2-guruh ma'lumotlariga nisbatan farqlar sezilarli (^ - P<0,05, ^^ - P<0,01, ^^ - P<0,001); ° - 3-guruh ma'lumotlariga nisbatan farqlar sezilarli (° - P<0,05, °° - P<0,01, °°° - P<0,001)

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, COVID-19 kasalligiga chalilib, kasallikdan 6 oy o'tgach, endoprotezlash jarrohlik amaliyoti o'tkazgan bemorlar son suyagi boshchasidagi suyak ustunlarining destruktiv o'zgarishlarga uchramagan osteoklastlar egallagan maydon 66,0 % ni, teng bo'lib, vakuollashgan osteoklastlar egallagan maydon esa 34,0 % ni tashkil etadi, bu ko'rsatkichlar 12 oylik muddatda bu ko'rsatkichlar 71,0/29,0 % ga tengdir. 18 oylikda mos ravishda 83,0/2,0 % nisbatni tashkil etadi. 24 oylik muddatda destruktiv o'zgarishlarga uchramagn osteoklastlar egallagan maydon 87,0 % ga, vakuollashgan osteoklastlar egallagan maydon esa, 13 % ga tenglashdi. Kasallikdan 24 oydan ko'p o'tgan bemorlar son suyagi boshchasidagi subxondral joylashgan suyak ustunlarining ingichkalashuvi yanada ortib uning o'lchamlari 94,0 % ga 6,0 % nisbatni tashkil etdi.


